

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA FORS-TOJIK EPOSINING O‘RGANILISHI

Sheraliyeva Rohatoy

NamDU 1-kurs tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fors-tojik eposining tarixiy va mifologik ildizlari, uning eng yuksak namunasiga aylangan Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari hamda ushbu epik merosning tarixiy xalqlar, xususan, o‘zbek adabiyotiga ta’siri keng tahlil etilgan. Qolaversa, Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Sa’diy va Amir Husrav kabi mutafakkirlarning o‘zbek adabiyotiga ijodiy ta’siri masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, Hamidjon Homidiyning “Shohnoma” ni o‘rganishdagi muhim tadqiqotlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Fors-tojik eposi, Shohnoma, Firdavsiy, o‘zbek adabiyoti, epik meros, tarjima, adabiy ta’sir, Nizomiy, Jomiy, Hamidjon Homidiy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно проанализированы исторические и мифологические корни персо-таджикского эпоса, а также его высшее проявление — произведение Абулькасима Фирдоуси «Шахнаме». Особое внимание уделяется влиянию этого эпического наследия на исторические народы, в частности, на узбекскую литературу. Также рассмотрено творческое влияние таких мыслителей, как Фирдоуси, Низами, Джамии, Саади и Амира Хусрави на узбекскую литературу. Кроме того, проанализированы важные исследования Хамиджона Хомидия по изучению «Шахнаме».

Ключевые слова: персо-таджикский эпос, Шахнаме, Фирдоуси, узбекская литература, эпическое наследие, перевод, литературное влияние, Низами, Джамии, Хамиджон Хомидий.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the historical and mythological roots of the Persian-Tajik epic, with a focus on its highest example — Abulqosim Firdawsī's Shahnameh. The study examines the impact of this epic legacy on historical nations, especially Uzbek literature. Furthermore, it discusses the creative influence of prominent thinkers such as Firdawsī, Nizami, Jami, Saadi, and Amir Khusraw on Uzbek literary tradition. The significant research conducted by Hamidjon Homidiy on the study of Shahnameh is also analyzed.

Keywords: Persian-Tajik epic, Shahnameh, Firdawsī, Uzbek literature, epic heritage, translation, literary influence, Nizami, Jami, Hamidjon Homidiy.

KIRISH

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida fors-tojik adabiyoti, uning epik namunalari bilan bog'liqligi, o'zaro ta'sir va uyg'unlashuv holatlari alohida e'tiborga molikdir. Tarixda Markaziy Osiyo xalqlari madaniy va adabiy maydon doirasida yashab ijod qilganliklari bois fors-tojik epik merosi o'zbek adabiyotiga boy ma'naviy zamin vazifasini o'tagan desak, xato bo'lmaydi.

Ayniqsa, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" durdona asari, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz, Amir Husrav Dehlaviy kabi allomalarning epik asarlari turkiy adabiyot, jumladan, o'zbek adabiyotshunosligining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutganligi tabiiy. O'zbek adabiyotshunosligida eposlarni o'rganish jarayoni XX asrning birinchi yarmidan boshlangan bo'lib, izchil yo'lga qo'yilgan. Lekin, bu jarayon asosan tarjimalar, umumiy tahlillar bilan cheklanganligini ko'ramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqillik yillariga kelib qo'hna Sharqning boy ma'naviy merosiga bo'lgan chuqur ilmiy yondashuv, aynan "Shohnoma" ni o'rganishda ham sezila boshladi. Eposning tarixiy, falsafiy va estetik qatlamlari, shuningdek, milliy o'zlikni anglashdagi o'rni kengroq tahlil etildi.

Bugungi kunda fors-tojik eposining o'zbek adabiyotshunosligiga ta'siri va bu ta'sirning adabiy, madaniy, estetik jarayondagi ahamiyatini izchil ilmiy asosda o'rganish, ularni bugungi avlod ongiga yetkazish, xususan, Firdavsiyshunoslik va firdavsiynavislik an'alarini tahlil qilish muhim o'rin tutmoqda.

Maqolada tavsiflash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Darhaqiqat, fors-tojik eposi asrlar davomida shakllanib kelgan boy og'zaki va yozma adabiy an'alarga ega ekanligi ma'lum. Asosan uning tub ildizlari qadimgi Eron mifologiyasi, "Avesto" rivoyatlari, zardushtiylik aqidolari hamda Eron podshohlarining tarixiy voqealariga borib taqaladi. Bu manbalarda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va zulm o'rtasidagi adabiy kurash g'oyalari aks etganligini ko'ramiz. Aynan shu asosda keyinchalik yuksak badiiy saviyadagi epik dostonlar yaratilganligi ma'lum.

Zardushtiylikda Jamshid, Zahhok, Afrosiyob, Rustam, Siyovush kabi qahramonlarning obrazlari yaratilib, ularning faoliyati keyinchalik eposlarda afsonaviy tarzda yoritilgan. Bu obrazlar asosan, "Shohnoma" asarida o'zining mukammal shakliga ega ekanligini ko'ramiz. Asar qahramonlari misolida xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy mezonlari, urf-odatlari badiiy yuksak darajada madh etilgan. Shuning uchun ham bu asar nafaqat fors - tojik adabiyotining, balki jahon adabiy

merosining durdona yodgorligi sifatida e'tirof etilgan. Asarda Eron tarixining afsonaviy, mifologik va tarixiy bosqichlari 120 mingdan ortiq baytlar orqali o'z ifodasini topgan. Rustam, Suhrob, Siyovush, Bahrom, Iskandar kabi obrazlar orqali milliy g'urur, vatanparvarlik, jasorat, fidoiyluk kabi tushunchalar teran badiiy tarzda ifodalangani fikrimizning dalilidir. Bu qahramonlar yillar davomida turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqining ham ruhiy dunyosiga singib ketgan deya olamiz. Firdavsiy asarida milliy o'zlik, urf-odat, mehnat va adolar g'oyalari ustuvor bo'lganligi bois uni turkiy xalqlar adabiyotiga yaqinlashtirgan. Shuning uchun ham Firdavsiyning "Shohnoma" asari ko'p marta turkiy tillarga tarjima qilinib, o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topgan.

Shubhasiz, fors-tojik epik asarlarining turkiy adabiyotga ta'siri serqirra va qamrovli bo'lib, bu jarayon ko'p asrlar davomida shakllangan. Asosan, Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Sa'diy va Amir Xusrav kabi mutafakkirlarning asarlari Markaziy Osiyoning turkiy tilli hududlarida keng tarqalgan. Biz turkiy adabiyotga ta'sirini quyidagi shakllarda namoyon bo'lganligini ko'ramiz:

- Sujet va obrazlar ta'siri: Rustam, Suhrob, Siyovush, Bahrom, Iskandar kabi obrazlar.

Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblarning asarlarida bevosita yoki ramziy tarzda aks etgan.

- G'oyaviy-ahloqiy jihatlar: Jasorat, adolat, fidoiyluk, insoniyluk kabi mavzular o'zbek epik asarlarida asosiy g'oya sifatida qayta ishlangan.

- She'riy shakl va uslub: fors epik she'riyatidagi badiiy san'atlar ya'ni ruboiy va qasida janrining estetik mezonlari turkiy adabiyotga kirib kelgan.

Masalan, mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida Firdavsiy, Jomiy, Nizomiy asarlariga bir necha bor murojaat qiladi va ularni ustoz sifatida e'tirof etganligi ma'lum.

Xususan, donishmand shoir Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni Nizomiyning xuddi shu nomli asariga nazira tarzida yozilgan bo'lsa, "Layli va Majnun" dostoni ham Nizomiy an'anasining davomi sifatida qaraladi.

O'zbek adabiyotshunosligida fors-tojik epik merosi chuqur singib ketganligi bois, ko'plab manbalar, dostonlar, tarjimalar, she'riy asarlarda o'z ifodasini topgan. Bu jarayon quyidagi shakllarda o'z aksini topadi:

- Tarjima an'analari: XVIII asrdan boshlab Firdavsiyning "Shohnoma" asari bir necha marta nazm aralash nasrlashtirildi. Jumladan, Shoh Hijron "Shohnoma"ning nasr-nazm aralash nusxasini yaratgan. Bu an'ana XIX asrning boshlariga kelib Muhammad Ya'qub Yorqandiy, Xomushiy, Nurmuhammad Buxoriy, Haybatulloxo'ja Xislatlar tomonidan davom ettirildi. Hatto Homushiy tarjimasi

“Shohnomai turkiy” nomi bilan uch marotaba (1903,1906,1909-yillar) toshbosma uslubida ko‘p nusxada nashr etildi. Keyinchalik ham bu qutlug‘ an‘ana muvaffaqiyatli ravishda davom ettirildi. Shuningdek, o‘zbek adiblari va tarjimonlarining nazm-nasr aralash, shuningdek, o‘zbek xalq dostonchiligi an‘analaridan unumli foydalangan holda tarjimalarni amalga oshirdilar.

XX asrga kelib, bir guruh o‘zbek ijodkorlari – Shoislom Shomuhamedov, Hamid G‘ulom, Jumaniyoz Jabborov asarning ma‘lum qismlarini hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga, ma‘lum qismlarini nazmiy yo‘lda mahorat bilan tarjima qildilar.

Bundan tashqari, butun umrini “Shohnoma” tadqiqiga bag‘ishlab, bu borada yirik tadqiqot ishlarini amalga oshirgan taniqli adabiyotshunos olim, professor Hamidjon Homidiy tomonidan ravon va sodda uslubda tarjima qilingan. Adabiyotshunos olimlar “Shohnoma” va boshqa fors-tojik dostonlarining o‘zbek adabiyotidagi aksini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib bordilar. Shu o‘rinda professor N.M.Mallayevning “Abulqosim Firdavsiy” (1962) kitobi, Xalqaro Firdavsiy mukofotining laureati, Sh. Shomuhamedovning “Fors –tojik adabiyoti klassiklari” (1963), “Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm” (1968) risolalarining alohida boblari, “Shoh kitob va uning muallifi” (1992), “Shohnoma”ning yangi she‘riy tarjimasiga yozgan so‘zboshisi va boshqa maqolalarida buyuk shoir ijodini atroflicha tahlil qilganlar. Oliy o‘quv yurtlari darsliklari, O‘zbek milliy ensiklopediyasidan ham Firdavsiy ijodi munosib o‘rin egallagan

Nizomiy, Jomiy, Sa‘diy ijodi o‘zbek shoirlarining g‘azal, masnaviy, qasida kabi janrlardagi asarlarida davom ettirilgan.

Xulosa shuki, fors-tojik epik merosi o‘zbek adabiyotining asosiy badiiy-estetik poydevorlaridan biri hisoblanadi. Bu o‘zaro aloqadorlik faqat tarjima bilan emas, balki badiiy tafakkur, obrazlar tizimi, va poetik shakllarning uyg‘unlashuvi bilan ham namoyon bo‘ladi.

Biz o‘zbek adabiyotshunosligida fors-tojik eposining o‘rganilish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘lamiz:

- Jadidchilik davrida fors-tojik epik merosiga e‘tibor: XX asr boshlarida

shakllangan jadidchilik harakati doirasida Sharq mumtoz adabiy merosiga yangicha yondashuv kuzatilganligini ko‘ramiz. Jadidlardan, xususan, Munavvar Qori Abdurashidxonov Firdavsiy, Jomiy, Sa‘diy, Nizomiy ijodini o‘zbek kitobxonlariga yetkazishga harakat qildi. Bu davrda fors-tojik eposining tarixiy va ma‘naviy qadriyat sifatidagi o‘rni yoritildi, xalq ruhiyatiga yaqin g‘oyaviy yo‘nalishlari targ‘ib qilindi, ta‘lim-tarbiyada foydalanish imkonlari ochib berildi.

Fitratning “Adabiyot qoidalarini” nomli asarida fors-tojik mumtoz adiblarining nomlari tilga olingan. Jomiy va Nizomiy ijodi didaktiklik, ahloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar nuqtai nazaridan ijobiy baholanganligini ko‘ramiz.

- *Sovet davrida fors-tojik eposining o‘rganilishi va siyosiy cheklovlar:*

Bu davrda fors-tojik adabiyoti, jumladan epik merosiga nisbatan murakkab yondashuvlar bo‘ldi. Bir tamondan, bu meros “feodal-ruhoniylar ideologiyasi mahsulati” sifatida qaraldi, ikkinchi tomondan esa tarixiy va madaniy jihatdan qimmatligi sababli, nazariy jihatdan o‘rganish zarurligi e‘tirof etildi. Bu davrda quyidagi ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

- 1950-60 – yillarda adabiyot instituti huzurida fors-tojik mumtoz adabiyotiga doir tadqiqotlar yanada faollashdi.

- Abdulqosim Firdavsiy asarlarini o‘rganish masalasida serqirra olim Hamidjon Homidiy singari adabiyotshunoslar tadqiqotlar olib bordilar.

- Fors-tojik dostonlari ta’siri masalasi Navoiyshunoslik doirasida ham ko‘rib chiqildi.

Bu davrda Firdavsiy asarlaridagi milliy ozodlik, diniy-ma’naviy qadriyatlar, epik qahramonlik kabi motivlar siyosiy sabablar bilan ochib berilmay qoldi. Ko‘plab qahramonlarning shaxsiyatlari materialistik talqinda tushuntirib o‘tildi.

- Mustaqillik yillarida fors-tojik epik merosiga ilmiy yondashuvning yangi

bosqichi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o‘zlikni anglash jarayonida fors-tojik adabiyoti, ayniqsa, epik merosga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi, desak yangilashmaymiz. Endilikda Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Hofiz, Sa’diy kabi allomalarning ijodiy faoliyatini tarixiy-madaniy kontekstda o‘rganila boshlandi.

Manbashunosh olim, serqirra ijodkor, jonkuyar ustoz Hamidjon Homidiy tomonidan “Shohnoma” asarining parchalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va unga ilmiy sharhlar berish kabi tadqiqotlar alohida ahamiyatga molik. Qolaversa, o‘zbek adabiyotining rivojida fors-tojik eposining o‘rni haqida ko‘plab ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. “Shohnoma”, “Xamsa” asarlariga bag‘ishlangan alohida monografik tadqiqotlar yozildi, talaba va tadqiqotchilar uchun maxsus darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlandi.

Fors-tojik eposining o‘rganilishiga hissa qo‘shgan olimlar haqida so‘z yuritganimizda Hamidjon Homidiy haqida alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Olim firdavsiyshunoslik rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yirik adabiyotshunos edi. Uning quyidagi xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim:

- “Shohnoma”dan parchalarni tarjima qilib va ularni ilmiy saraladi;

- “Barhayot she’riy qasr” nomli monografiyasida fors-tojik mumtoz she’riyati va eposini tahlil qildi;

- Darslik va maqolalar orqali yosh avlodga fors-tojik eposini tanitdi va targ’ib qildi;

- Firdavsiy, Jomiy, Hofiz kabi adiblarning obrazini xalqchil, ruhiy-ahloqiy jihatdan mukammal obrazlar sifatida ko’rsatdi.

XULOSA

Fors-tojik epik merosi, ayniqsa Firdavsiyning “Shohnoma” asari, o’zbek adabiyoti rivojida muhim badiiy va ma’naviy manba sifatida xizmat qilgan. Ushbu epik an’ana obrazlar, g’oya, shakl va uslub jihatidan o’zbek adabiyotiga chuqur ta’sir ko’rsatgan. Tarjima, nazira, nazmiy va nasriy asarlar orqali bu meros asrlar davomida qayta ishlangan va boyitilgan. Jadidchilik, sovet davri va mustaqillik yillarida fors-tojik eposiga bo’lgan yondashuvlar farq qilsa-da, uning ilmiy o’rganilishi izchil davom etgan. Bu borada Hamidjon Homidiy kabi adabiyotshunos olimlarning hissasi beqiyosdir. Hamidjon Homidiy ilmiy faoliyati davomida Firdavsiyning tarixiy shaxs sifatidagi o’rni, “Shohnoma” asarining o’zbek xalqi tafakkuriga ta’sirini ko’rsatishga alohida ahamiyat berdi. U o’zbek adabiyotshunosligida yangi firdavsiyshunoslik yo’nalishini shakllantirgan zahmatkash olimlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Ҳомидов Ҳ.(1979). Барҳаёт шеърӣ қаср. – Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент – 1979. 3 – 4 – б.
2. Ҳомидов Ҳ. (1991). “Шоҳнома”нинг шухрати. – Т.: Ўзбекистон, 1991. – 96 б. 5 – 6 – б.
3. Собитлик: (тўплам) / тўплаб, нашрга тайёрловчи М. Сулаймонов; масъул муҳаррир А. О. Умаров. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 216. 3 - 9 –б. 47 – 48б.
4. Фирдавсий, Абдулқосим. (2012). “Шоҳнома”: сайланма / А. Фирдавсий; нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ. Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж. Муҳаммад. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. – 188 б. 5 – 9 – б.
5. Содиқлик. (2015) “Adabiyot uchqunlari” Тошкент – 2015. Масъул муҳаррир: Асрор Самад. Тўпловчи: Мўминжон Сулаймонов.